

## YOSHLARNI OILADA MA'NAVYI-AXLOQIY TARBIYALASHDA MILLIY QADRIYATLARDAN FOYDALANISH

*Buxoro davlat universiteti*  
*pedagogika kafedrası o`qituvchisi*  
**Xojiyeva Matluba Shukurovna**

Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanish bizning milliy pedagogikamizda azaldan mavjud bo'lgan va turli davrlarda u o'ziga xos ko'rinish hamda mazmunmohiyatiga ega bo'lgan. Bu tarbiya sohasi o'zining turli-tumanligi jihatdan qadriyatlar yo'nalishlari bilan bog'liq bo'lib, uning bolalar dunyoqarashi hamda ruhiyatiga ta'sir etib, ma'lum bir ko'nikmalar hosil qilishi juda bir murakkab jarayondir. Ushbu murakkab jarayon qadriyatlarining yuzaga kelish asoslari bilan bog'liqdir. Kalit so'zlar: tarbiya, jarayon, vazifa, munosabat, hurmat-e'tibor, qadriyat, mahalla, muomala, usul.

The use of national values in the spiritual and moral education of children in the family has existed in our national pedagogy since time immemorial, and in different periods it had its own appearance and content. This area of education in its diversity is associated with value orientations, it is a complex process that affects the worldview and psyche of children, forms certain skills. This complex process is connected with the basics of the emergence of values. Keywords: upbringing, process, task, attitude, respect, value, neighborhood, treatment, method.

### KIRISH

Qadriyatshunoslik asosan qadriyatlar, ularning namoyon bo'lish shakllari, qadrlash xissi, qadrlash tuyg'usi, realikka qadriyatli munosabat va aksiologik yondashuv, ijtimoiy taraqqiyot jarayonida qadriyatlar sohasidagi o'zgarishlar, qadrlash va qadrsizlanish muammolari, tarixni aksiologik tushunish, qadriyat tizimlarining amal qilish xususiyatlari to'g'risidagi masalalarni o'rganadi. Bular: tabiiy qadriyatlar (yashash uchun zarur bulgan tabiiy shart-sharoitlar); iqtisodiy qadriyatlar (ishlab chiqarish kuchlari va vositalari); ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar (erkinlik, tenglik, adolat, tinchlik, hamkorlik); ilmiy qadriyatlar (bilimlar, tajribalar, yutuqlar); falsafiy qadriyatlar (g'oyalar, mafkuralar, konsepsiyalar); badiiy qadriyatlar (san'at, adabiyot, madaniyat); diniy qadriyatlar (iymon, e'tiqod, vijdon, savob) kabi qadriyatlarni qayd etish mumkin bo'ladi. Shu bilan birga fanda qadriyatlarining milliy va umuminsoniy turlarga ajratilishi an'ana tusiga kirgan.

### ASOSIY QISM

Insonning o'z-o'zini hurmat qilishi, o'z or-nomusi hamda obro'sini saqlab qolishiga imkon beradi. Bu esa unga milliy o'zligini anglash orqali vujudga keladigan jarayondir. Insonning shaxsiy qadr-qimmatini milliy qadriyatlardan kelib chiqadigan ijtimoiy xususiyatlaridan bo'lib, uni yuksaklikka olib boruvchi oliyjanob bir kuchdir. Shu jihatdan qadriyatlar insonning ijtimoiy erkinligini va ma'naviy pokligini ta'minlovchi bir buyuk

manbadir. Uning o'zi va atrofidagilar uchun foydali, samarali jihatlarining kupayib borishi nafaqat uning o'zini, balki atrofdagilar ma'naviy-axloqiy xislatlarini ham tuzatib boradi. Shu sababni jamiyat taraqqiyoti talablarida inson qadriyati milliy qadriyatlardan kelib chiqishiga ko'ra ijtimoiy mazmunmohiyatga egadir, ular insonning ta'limi, tarbiyasi va kundalik mehnat faoliyati natijasida shakllanadi. Inson shaxsi, ijtimoiy tarbiyadan kelib chiqadigan qadriyatlar, inson manaviy-axloqiy miyorlari, xulq-atvori va yurish turishini tartibga solib turadigan bir kuchdir. Buning ta'siri natijasida insonning nafaqat xarakteri, balki uning xayoli yangicha mazmun kasb etib, boyib boradi. Mustaqillik yillarida milliy qadriyatlar tiklanishi natijasida inson qadr-qimmatini e'zozlash uning bilimi, madaniyat saviyasini o'stirish hamda ichki qobiliyat-ko'nikmalarini rivojlantirishga keng yo'l ochildi so'nggi o'n yilliklar davomida inson shaxsi, uning haq-huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini muhofaza qilish bo'yicha ancha katta ishlar amalga oshirildi. Bulardan eng diqqatga sazovor jihati oila va maktab hamkorligini kuchaytirish, uning samaradorligi oshirishga qaratilganligidir.

Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Bugungi kunda butun dunyo, ayniqsa, islom ham jamiyati davrning tahlikali tahdidlari bilan yuzma - yuz turibti. Islom dinini siyosiyashtirish va musulmon yoshlarini radikallashtirish borasidagi urinishlar bunday xatarlarni ota jiddiy tahlil qilish, baholash va ularga munosib javob berishni taqozo etmoqda. Shunday ekan, globallashtirish jarayonlari tufayli inson faoliyatida uchrayotgan salbiy amallarning oldini olish uchun uni milliy qadriyatlar, diniy qadriyatlar va umuminsoniy madaniyat yutuqlari asosida tarbiyalash bugungi kun talabidir." Bizga malumki, umuminsoniy qadriyatlarning ilk kurtaklari Sharqda shakllanib, diniy qadriyatlar inson ma'naviyatining tarkibiy qismi sifatida e'zozlanib kelmoqda. Sharq qadriyatlari o'z - o'zanida rivoj topib borishi bilan bir qatorda insoniyatning kelgusi taraqqiyotiga zamin bo'lib xizmat qildi, hamda o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatdi. Sharq sivilizatsiyasi va madaniyati xalqlarni ma'naviy ruhiy jihatdan buyuk o'zgarishlarga tayyorlashda mayoq vazifasini o'tab kelmoqda. Tarixning guvohlik berishicha, o'zbek xalqi eng qadimiy xalqlardan biri bo'lib, jahon sivilizatsiyasida munosib o'rnini egallab kelmoqda. Chunki jahon miqyosida o'zining aql - idroki, tafakkur qilish qobiliyati umuminsoniy qadriyatlar talabiga javob beradigan buyuk alloma mutaffakkirlarni yetkazib berdi. O'zbek xalqi milliy qadriyatlarini xarakterlaydigan o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat: yuksak insonparvarlik, bag'rikenglik, mehmondo'stlik, hamma millat va elat vakillariga izzat hurmat ko'rsatish, mulohazalilik, sharm- xayolilik, bolajonlilik, hamdardlik, mahalladoshlik, halollik va boshqalar. Bu va shunga o'xshash o'zbek milliy qadriyatlar Yangi O'zbekistonda yashayotgan har bir kishining ko'nglida g'ururlanish hissiyotini paydo qiladi va bu bilan haqli ravishda faxrlanadi. Bugungi adolatli davlat bunyod etilayotgan davrda o'tmish ajdodlarimizning tajribalarini o'rganish, ularning ibratli ishlaridan ijobiy saboq olish, umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan yangicha dunyoqarashni va milliy mafkurani shakllantirish, harakatlar strategiyasidan taraqqiyot strategiyasi sari tamoyiliga asoslangan barqaror

Oilada bolalarni manaviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanish usullari bir qancha o'ziga xos shart-sharoitlari taqazo etadi. Bu shart-sharoitlar quyidagi yo'nalishlardagi masalalarda ko'rish mumkin:

- Ota-onalarni bolalar tarbiyasiga ijtimoiy va pedagogik jixatdan tayyorlash. Chunki ota-onalar oila tarbiyasida o'z vazifalarini yuzasidan o'rnak bo'la olishlar kerak bo'ladi.

- Bolalarni o'z tengqurlari bilan bo'ladigan munosabatlarga tayyorlab borish. Bu bolalar bog'chasi mahalla va maktabda olib boriladigan tarbiya jarayoni bo'lib hisoblanadi.

- Bolalar oldida o'z hurmatini yo'qotmasdan, obru-e'tiborga loyiq bo'lishlik. - O'zaro munosabatlarda aldov, qo'pollik ikkiyuzlamachilikka yo'l qo'ymaslik.

- Tarbiya jarayonida bolalar xulq-atvori, ruhiyati, jinsi va yoshini e'tiborga olgan holda ularga yondashishi.

- Atrofda oila tarbiyasida uchraydigan xato-kamchiliklar hamda tarbiyasi og'ir bolalar muamosini unutmaslik va o'z oilasida bunga yul kuymaslik. - Rivojlanishida ayrim fiziologik nuqsonlar bo'lgan, imkoniyati cheklangan bolalar tarbiyasiga ehtiyotkorona yondashish.

- Oilada bolalarni mehnat tarbiyasi orqali tarbiyalash.

- Bolalarning o'qish, ishlash va dam olishlarini to'g'ri tashkil etish.

- Bolalarni atrofda uchraydigan salbiy holatlarda nafrat hamda ularga qarshi kurashish ruxida tarbiyalab borish.

Ushbu ijtimoiy asoslardan kelib chiqqan holda oilada bolalar manaviy-axloqiy tarbiyasini milliy qadriyatlar asosida shakllantirishning quyidagi ijtimoiy-pedagogik usullarini ko'rib chiqish mumkin bo'ladi: 1. Ota-onalarning kundalik muomala usullari: - o'zaro ta'sir usullari; - o'zaro hamkorlik usullari; - birgalikda ishlash usullari; - bolalar shaxsini hurmat qilish va qullab-quvvatlash usullari ularni tushunish, ishonish hamda anglash usullari; - bolalarni ishontirish usullari, bu suhbat, ishonch bildirish, bahs-munozara, namuna, yo'naltirish, maqtov, xatolardan ogohlantirish, o'zaro hamkorlik usullari. 2. Psixologik ta'sir usullari: - individual yondashish usullari. Bolalar bilan o'zaro ishonch va maslahat ohangida suhbatlar o'tkazish; - bolalar bilan turli xil xalq o'yinlari o'tkazish; - bolalar bilan turli xil psixologik mashqlar o'tkazish; - bolalar bilan muloqotda yuzaga keladigan psixologik muammolarni hamkorlikda tahlil qilish usullari; - milliy-badiiy asarlardagi xalq qahramonlari obrazlarini jonli yetkazish va ularning ijobiy fazilatlarini yoritib berish usullari; - bolalarda o'z milliy mentalitetimizdan kelib chiqadigan ruhiy-irodaviy tarbiyani shakllantirish usullari; - bolalar bilan "O'zbek xalq ertaklari dunyosiga sayohat", "Fantaziya xonasiga kirish", "Sirlar olamiga sho'ng'ish", "Vaqt mashidasida o'tmishga sayohat" kabi mashg'ulotlar hamda o'yinlar o'tkazish usullari; 3. Nutq orqali (verbal) ta'sir usullari: - izoh va tushuntirish; - hikoya va ertak; - ma'ruza va bahs; - savol-javob usullari. 4. Milliy qadriyatlarni namoyish etish usullari: - fotolavhalar namoyishi; - ilustratsiyalar namoyishi; - milliy qadriyatlarning o'zgarish, rivojlanishi kuzatish usullari. 5. Amaliy usullar: - bolalar bilan hamkorlikda mehnat, osori -atiqalar, obidalar, eski qo'lyozma yoki kitoblarni asrabavaylash; - bolalarni turli saylgoh va ziyoratgohlarga olib

borish; - xalq milliy bayramlarida va yirik umumxalq tadbirlarida ishtirok etish. 6. Milliy adabiyot, tarix, san'at va madaniyatga oid asarlarni o'rganish usullari:

- bolalarga milliy adabiyot, tarix, san'at va madaniyatga oid kitoblardan olib berish;

- milliy adabiyot, tarix, san'at va madaniyatga oid asarlardan ko'chirmalar, nusxalar olib, ularni bolalarga yetkazish;

- bolalarda milliy rassomchilik, haykaltaroshlik va xalq amaliy hunarmandchiligi namunalari nisbatan qiziqish uyg'otish hamda nodir asarlar bilan ularni tanishtirish; - bolalar bilan birga dars tayyorlash, turli qiziqarli mashg'ulotlar o'tkazish.

7. Milliy qadriyatlarimiz asoslarini yorituvchi videoko'rsatuvlar, filmlar hamda lavhalarni bolalarga ko'rsatish;

8. Bolalar ongiga milliy qadriyatlarni singdirishda maqsadga yo'naltirish usullari: - bilimlarni egallashga yo'naltirish;

O'zbek xalqi qadimdan oila ma'naviyatiga alohida e'tibor qaratgan. Bugungi kunda ma'naviy merosdan foydalanib, mustaqil respublikamiz talabiga javob beradigan yoshlarni tarbiyalash har bir oilaning muqaddas burchidir. Bu burchni sharaf bilan ado etish oilada yosh avlod ongiga avlodlar shajarasi, kasb-kori, urf-odatlar, an'analari, tarbiya usullari, jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, o'ziga xos ijobiy tarixini singdirish, undan gururlanish xissini tarbiyalashdan boshlanadi. O'z ota-onasidan, oilasi, avlod-ajdodlari tarixidan gururlangan inson o'z o'lkasi, millati, xalqi, tili, dini, madaniyatidan gururlanishi, uni avaylab -asrashi, dunyoga ko'zko'z qilishi tabiiydir. Buning uchun oilada bolaning ongiga yoshlikdan boshlab «sen tarixi boy, ulug millatning farzandisan», «sen ulug mutafakkirlar, allomai-zamonlarni dunyoga keltirib, tarbiyalagan bobokalonlarning ajdodisan», «o'zbek xalqi boy ma'naviyatli, vatanga, xalqqa, sadoqatli xalq», «Bizning mamlakat dunyoda tabiati eng go'zal, boy diyor» kabi tushunchalarni singdirib bormoq lozim. Sir emaski, ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning mazmun va mohiyatini teran anglamaslik, loqaydlik, mahalliychilik, ma'naviy va moddiy qadriyatlarga beparvolik oila ma'naviyatiga salbiy ta'sir etuvchi illatlardir. Buning oldini olishning muhim vositalaridan biri oilada bo'sh vaqtni samarali tashkil etishdan iboratdir. Shuni unutmaslik kerakki, insoniyat va millatlar takomili xech qachon milliy an'analarni poymol etish, axloqu odob pardalarini gijimlash evaziga emas, aksincha, insonni yanada balandroq ma'naviyat, poklik va odob cho'qqisiga olib chiqishda namoyon buladi. Binobarin, «Ajdodlarimizning ruhi poklari va urf-odatlar, bizning eng yaxshi an'alarimiz qayta tiklanganda islohatlar muvaffaqiyatga erishadi. O'ta o'qimishli, ruhan bardam va jismonan baquvvat kishilargina istiqlol va taraqqiyot yo'lini bosib o'ta oladi. Sarchashmalari buyuk ajdodlarimizning tafakkurlari va muddaolaridan boshlanadigan xalqimizning ma'naviy qadriyatlari iqtisodiy o'zgartirishlarimizning mustahkam poydevori bo'lib xizmat qiladi». Oilaviy bayramlarni nishonlash, yoshlar tarbiyasida alla, ertak, xalq maqol va matallaridan, qo'shiqlaridan samarali foydalanish, birgalikda madaniy xordiq, chiqarishni, milliy sport o'yinlari va musobaqalarini, tarixiy obidalar va qadamjolarga sayoxatlar uyushtirish, boshqa millat ma'naviyatiga hurmat bilan munsobatda bo'lish, oila kitobxonligini tashkil etish, oilada til, muloqot va kiyinish madaniyatiga alohida e'tibor

berish, farzandlarga kasb-hunar o'rgatish, oilada bo'sh vaqtni ijtimoiy foydali mehnat vositasida samarali tashkil etish oila ma'naviyatini shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ushbu tadbirlar majmuasi negizida yirik oilaviy sport musobaqalari, qo'shiq bayramlari, oilaviy ansamblarning ko'rik-tanlovlari, san'at bayramlari iqtidorli ijodkorlar bilan o'tkaziladigan ijodiy kechalar, milliy musiqa, raqs, qo'shiq, milliy estrada san'atini keng targib etishga qaratilgan maxsus teleko'rsatuvlar, teleradio darslari tashkil etish har bir fuqaro ma'naviy ongi va tafakkurini shakllantirishda ijobiy natijalar beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOT:

1. Mirziyoyev.Sh.M. "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz". – Toshkent. O'zbekiston: 2017 yil,1 tom

2. Jumaeva, Mehribon. "ПЕДАГОГИКА ФАНИНИ ЎҚИТИШДА ЎҚИТУВЧИ ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 4.4 (2021).

3. ожиева, Матлуба Шукуровна, and Бахтиёр Тўйевич Хамраев. "БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАР МАЪНАВИЙ МАДАНИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ." Scientific progress 2.8 (2021): 196-202.

4. Hojiyeva, Matluba. "TA'LIM JARAYONIDA AKSIOLOGIK TARBIYANI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 1.1 (2021).

5. Ходжиева, Матлуба Шукуровна, and Бахтиер Тўйевич Хамраев. "ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ УБЕЖДЕНИЙ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ В КАЧЕСТВЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ПРОБЛЕМЫ." Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture 2.2 (2022): 114-118

6. Жураев, Б. Т. "Деятельность педагога по гуманизации учебно-воспитательного процесса." Научные школы. Молодежь в науке и культуре XXI в.: материалы междунар. науч.-творч. форума 31 (2017).